



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI




# NOMINAL HISOBLANGAN O'RTACHA OYLIK ISH HAQI

*qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
subyektlarisiz, dastlabki ma'lumotlar*

*2022 - yil yanvar-sentabr*


## O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi

yanvar-sentabr, o'sish darajasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan, ming so'm



## O'rtacha oylik ish haqi hududlar kesimida


qishloq xo'jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorliksiz, yanvar-sentabr, ming so'mda



2022 - yil yanvar-sentabr oylarida Respublikadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3 721,8 ming so'mni** tashkil etib, (2021 - yil mos davrida **2 978,9 ming so'm** bo'lgan) 2021 - yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **124,9 %** ni tashkil qildi.


## Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan hududlardagi o'rtacha oylik ish haqi,

yanvar-sentabr holatida, % da




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xodimlar sonining jamiga nisbatan ulushi

Korxona va tashkilotlarda (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz) mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan, o'rtacha oylik ish haqini hisoblashda hisobga olinganlar, yanvar-sentabr holatida




**MA'LUMOT  
UCHUN**

Barcha yuridik shaxslar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlari bilan birga, yanvar-dekabr)



### Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori dinamikasi, so'mda



**Ma'lumot uchun:** Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga 2022 - yil 1 - iyundan o'zgartirish kiritildi hamda **920,0 ming so'mga** yetkazildi.


2022 - yil yanvar-sentabr oylari uchun o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichini shakllantirishda qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlari **hisobga olinmagan**, chunki fermer xo'jaliklari hamda kichik tadbirkorlik subyektlari **yilda bir marta** hisobot taqdim etishi belgilangan.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari (keyingi o'rnlarda – o'rtacha oylik ish haqi) har bir iqtisodiy faoliyat turlarida turlicha farqlanadi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga qo'shimcha to'lovlар, mukofot pullari, rag'batlantiruvchi to'lovlар, kompensatsiya va ishlamagan vaqt uchun to'lovlар, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va kasaba uyushmasiga ajratmalar kiradi.

## O'rtacha oylik ish haqining tarmoqlar bo'yicha o'zgarish dinamikasi,

*yanvar-sentabr, ming so'm*




**2021-2022 - yillarda o'rtacha oylik ish  
haqining oylar kesimidagi dinamikasi,  
yanvar-sentabr holatida, ming so'm**



### O'rtacha oylik ish haqi


iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, yanvar-sentabr, ming so'm



2022 - yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng baland ko'rsatkichi – **bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati** sohasiga to'g'ri kelib, 9 734,1 ming so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, **axborot va aloqa** sohasi 6 976,8 ming so'mni, **tashish va saqlash** sohasi 4 854,8 ming so'mni va **sanoat** sohasi 4 706,0 ming so'mni tashkil etib, o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichni tashkil qildi. **Ta'lim** (2 596,8 ming so'm) hamda **sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish** (2 510,3 ming so'm) sohalari esa boshqa sohalarga nisbatan eng quyi pog'onalarda ekanligini ko'rshimiz mumkin.

## SANOAT SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



### Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi,

yanvar-sentabr, ming so'm



**2 386,9**

Suv bilan ta'minlash,  
kanalizatsiya tizimi,  
chigindilarni yig'ish  
va utilizatsiya qilish



**4 569,5**

Ishlab chiqarish  
sanoati



**5 528,0**

Elektr, gaz, bug'  
bilan ta'minlash va  
havoni konditsiyalash




**6 698,4**


Tog'-kon sanoati va  
ochiq konlarni ishlash

Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'i (6 698,4 ming so'm), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (5 528,0 ming so'm) hamda ishlab chiqarish sanoati (4 569,5 ming so'm)da kuzatildi.

## Sanoat sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi, yanvar-sentabr holatida, ming so'm



## Hududlar kesimida, yanvar-sentabr, ming so'm




o'tgan yilning mos davriga nisbatan qo'shimcha o'sish

## O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, yanvar-sentabr, ming so'm




Sanoat iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Navoiy viloyati (7182,5 ming so'm), Toshkent shahri (5300,2 ming so'm), Toshkent viloyati (4895,8 ming so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasi (4572,7 ming so'm) hamda Qashqadaryo viloyatida (4 493,6 ming so'm) kuzatildi.

## QURILISH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI




### Hududlar kesimida, yanvar-sentabr, ming so'm




Qurilish faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent viloyati** (6 716,2 ming so'm), **Toshkent shahri** (5 214,5 ming so'm) hamda **Navoiy viloyati** (4 730,5 ming so'm) da qayd etildi.

### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, yanvar-sentabr, ming so'm



## SAVDO SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



### Savdo sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, *yanvar-sentabr, ming so'm*



**3 440,9**

Avtomobil va  
mototsikllarning  
savdosidan tashqari  
chakana savdo



**3 905,6**

Avtomobil va  
mototsikllarning  
savdosidan tashqari  
ulgurji savdo



**4 375,9**

Avtomobil va  
mototsikllarning ulgurji  
va chakana savdosи va  
ularni ta'mirlash




**4 418,7**


Oziq-ovqat mahsulotlari,  
jumladan, ichimliklar va  
tamaki mahsulotlari  
ulgurji savdosи

Savdo sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ulgurji savdosи** (4 418,7 ming so'm)da, eng past ko'rsatkich esa **avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo** (3 440,9 ming so'm)da kuzatildi.

## Savdo sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi, yanvar-sentabr, ming so'm



## Hududlar kesimida, yanvar-sentabr, ming so'm




o'tgan yilning mos davriga nisbatan qo'shimcha o'sish

## O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, yanvar-sentabr, ming so'm



Savdo faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahri** (4 316,7 ming so'm), **Buxoro viloyati** (3 532,4 ming so'm), **Jizzax viloyatlarida** (3 274,3 ming so'm) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'ati **Buxoro viloyati** (161,9 %), **Qashqadaryo viloyatida** (121,1 %) va **Qoraqalpog'iston Respublikasida** (117,5 %) qayd etildi.

## TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



### Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi,

yanvar-sentabr holatida



**8 084,8** ming so'm

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati



**4 446,6** ming so'm

Quruqlikdagi va quvur transporti



**2 185,2** ming so'm

Pochta va kuryerlik faoliyati




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati** (8 084,8 ming so'm)da, eng past ko'rsatkich esa **pochta va kuryerlik faoliyati** (2 185,2 ming so'm)da kuzatildi.

## Tashish va saqlash sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi, yanvar-sentabr, ming so'm

—●— Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati

—●— Quruqlikdagi va quvur transporti

—●— Pochta va kuryerlik faoliyati




## Hududlar kesimida, yanvar-sentabr, ming so'm

Xorazm	6 520,9	+55,6%
Toshkent sh.	5 774,8	+26,0%
Buxoro	4 957,7	+16,0%
Qoraqalpog'iston R.	4 177,2	+12,6%
Surxondaryo	4 065,3	+15,2%
Qashqadaryo	3 965,5	+21,8%
Farg'ona	3 713,7	+28,6%
Jizzax	3 431,4	+91,4%
Sirdaryo	3 307,9	+105,1%
Navoiy	3 257,5	+30,9%
Samarqand	3 234,4	+40,0%
Toshkent	3 037,5	+53,1%
Namangan	2 650,6	+21,6%
Andijon	2 231,2	+34,2%


○ 'tg'an yilning mos davriga nisbatan qo'shimcha o'sish

## O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, yanvar-sentabr, ming so'm



Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Xorazm viloyati** (6 520,9 ming so'm), **Toshkent shahri** (5 774,8 ming so'm), **Buxoro viloyatida** (4 957,7 ming so'm) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'ati **Sirdaryo viloyatida** (2 martaga), **Jizzax viloyatida** (191,4 %), **Xorazm viloyatida** (155,6 %) va **Toshkent viloyatida** (153,1 %) qayd etildi.

## AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



### Axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, yanvar-sentabr

Kompyuter dasturlashtirish,  
maslahat berish va boshqa  
yordamchi xizmatlar

**10 485,8**  
ming so'm



**8 972,2**  
ming so'm

Axborot  
xizmati ko'rsatish  
sohasidagi faoliyat

Aloqa  
sohasi

**6 649,4**  
ming so'm




**6 568,0**  
ming so'm


Noshirlik  
faoliyati

Axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar** (10 485,8 ming so'm)da, eng past ko'rsatkich esa **noshirlik faoliyati** (6 568,0 ming so'm)da kuzatildi.

## Axborot va aloqa sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi, yanvar-sentabr, ming so'm




## Hududlar kesimida, yanvar-sentabr, ming so'm




o'tgan yilning mos davriga nisbatan qo'shimcha o'sish

## O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, yanvar-sentabr, ming so'm



Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahri** (8357,8 ming so'm), **Samarqand viloyati** (4732,7 ming so'm) hamda **Jizzax viloyatida** (4521,4 ming so'm) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'ati **Toshkent** (163,5 %), **Surxondaryo** (152,8 %), **Farg'ona** (143,9 %), **Buxoro viloyatlarida** (143,4 %) qayd etildi.

## BANK, SUG'URTA, LIZING, KREDIT VA VOSITACHILIK SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, yanvar-sentabr**



**9 770,8** *ming so'm*

Sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar



**9 677,5** *ming so'm*

Majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari faoliyat




**8 277,4** *ming so'm*

Moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha yordamchi faoliyat

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar** (9 770,8 ming so'm)da eng past ko'rsatkichi esa **moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha yordamchi faoliyat** (8 277,4 ming so'm)da kuzatildi.



**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida  
tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi,  
yanvar-sentabr, ming so'm**



**Hududlar kesimida,**  
yanvar-sentabr, ming so'm

Toshkent sh.	12 466,4	+9,8%
Andijon	9 445,8	+40,4%
Navoiy	8 602,0	+19,5%
Xorazm	8 515,8	+25,8%
Buxoro	8 251,9	+24,2%
Jizzax	8 148,7	+31,2%
Farg'onha	8 014,6	+31,2%
Qoraqalpog'iston R.	7 986,2	+31,7%
Toshkent	7 591,7	+30,9%
Qashqadaryo	6 841,4	+9,7%
Surxondaryo	6 776,7	+42,6%
Sirdaryo	6 760,4	+18,4%
Namangan	6 424,8	+13,7%
Samarqand	6 339,8	+12,6%


o'tgan yilning mos davriga nisbatan qo'shimcha o'sish

**O'rtacha oylik ish haqining  
yillar kesimidagi dinamikasi,**  
yanvar-sentabr, ming so'm



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahri** (12 466,4 ming so'm), **Andijon viloyati** (9 445,8 ming so'm), **Navoiy** (8 602,0 ming so'm) va **Xorazm** (8 515,8 ming so'm) viloyatlarida kuzatildi. Yuqori o'sish sur'ati **Surxondaryo viloyatida** (142,6 %), **Andijon viloyati** (140,4 %) hamda **Qoraqalpog'iston Respublikasida** (131,7 %) qayd etildi.

## TA'LIM SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



**Ta'lif sohasining asosiy tarmoqlari  
bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi,  
yanvar-sentabr holatida**

Oliy  
ta'lif

**5 766,9**  
*ming so'm*



Texnik va  
professional ta'lif

**2 526,7**  
*ming so'm*



**2 628,1**  
*ming so'm*

Umumiy  
o'rta ta'lif




**1 499,3**  
*ming so'm*

Maktabgacha  
ta'lif

Ta'lif sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **oliy ta'lif** (5 766,9 ming so'm)da, eng past ko'rsatkich esa **maktabgacha ta'lif** (1 499,3 ming so'm)da kuzatildi.

**Ta'lif sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi  
o'zgarishi dinamikasi, yanvar-sentabr, ming so'm**



**Hududlar kesimida,  
yanvar-sentabr, ming so'm**

Toshkent sh.	3 966,1	+20,9%
Toshkent	2 610,8	+17,3%
Andijon	2 605,0	+18,5%
Sirdaryo	2 589,4	+12,5%
Navoiy	2 586,9	+17,5%
Namangan	2 564,7	+15,0%
Xorazm	2 452,8	+18,2%
Qoraqalpog'iston R.	2 446,1	+15,7%
Buxoro	2 436,2	+14,7%
Samarqand	2 429,7	+15,7%
Surxondaryo	2 415,7	+16,6%
Jizzax	2 414,2	+12,3%
Farg'ona	2 378,5	+15,7%
Qashqadaryo	2 258,2	+14,3%


● o'tgan yilning mos davriga nisbatan qo'shimcha o'sish

**O'rtacha oylik ish haqining  
yillar kesimidagi dinamikasi,  
yanvar-sentabr, ming so'm**



Ta'lif sohasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahri** (3966,1 ming so'm), **Toshkent** (2 610,8 ming so'm) hamda **Andijon viloyatlarida** (2605,0 ming so'm) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'ati **Toshkent shahrida** (120,9 %), **Andijon** (118,5 %), **Xorazm** (118,2 %) hamda **Navoiy viloyatlarida** (117,5 %) qayd etildi.

## SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIY XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



### Hududlar kesimida, yanvar-sentabr, ming so'm

Toshkent sh.	2 952,5	<span style="color: yellow;">+22,1%</span>
Qoraqalpog'iston R.	2 729,0	<span style="color: yellow;">+20,9%</span>
Andijon	2 636,2	<span style="color: yellow;">+22,8%</span>
Xorazm	2 628,0	<span style="color: yellow;">+23,7%</span>
Sirdaryo	2 609,4	<span style="color: yellow;">+20,7%</span>
Navoiy	2 552,9	<span style="color: yellow;">+30,3%</span>
Buxoro	2 531,5	<span style="color: yellow;">+11,7%</span>
Toshkent	2 490,8	<span style="color: pink;">- 3,3%</span>
Samarqand	2 447,1	<span style="color: yellow;">+22,6%</span>
Jizzax	2 411,5	<span style="color: yellow;">+26,9%</span>
Surxondaryo	2 383,1	<span style="color: yellow;">+21,7%</span>
Namangan	2 376,7	<span style="color: yellow;">+25,6%</span>
Farg'onha	2 343,3	<span style="color: yellow;">+25,1%</span>
Qashqadaryo	2 152,0	<span style="color: yellow;">+25,8%</span>


● o'tgan yilning mos davriga nisbatan qo'shimcha o'sish

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasining faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahri** (2 952,5 ming so'm), **Qoraqalpog'iston Respublikasi** (2729,0 ming so'm) hamda **Andijon viloyatida** (2636,2 ming so'm) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'ati **Navoiy** (130,3 %), **Jizzax** (126,9 %) hamda **Qashqadaryo** (125,8%) viloyatlarida qayd etildi.


### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, yanvar-sentabr, ming so'm



## YASHASH VA OVQATLANISH BO'YICHA XIZMATLAR SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



### Hududlar kesimida, yanvar-sentabr, ming so'm




(Yellow circle) o'tgan yilning mos davriga nisbatan qo'shimcha o'sish

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahri** (3417,6 ming so'm), **Samarqand** (2985,8 ming so'm) hamda **Surxondaryo** (2925,3 ming so'm) viloyatlarida kuzatildi. Yuqori o'sish sur'ati **Sirdaryo viloyati** (151,0 %), **Andijon** (139,6 %), **Surxondaryo** (128,9 %) viloyatlarida hamda **Toshkent shahrida** (128,9 %) qayd etildi.

### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, yanvar-sentabr, ming so'm




## SAN'AT, KO'NGIL OCHISH VA DAM OLİSH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



o'tgan yilga nisbatan qo'shimcha o'sish



### Hududlar kesimida, yanvar-sentabr, ming so'm



o'tgan yilning mos davriga nisbatan qo'shimcha o'sish

San'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasining faoliyati turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahri** (4 858,5 ming so'm), **Namangan** (4 134,2 ming so'm) hamda **Jizzax** (3433,0 ming so'm) viloyatlarida kuzatildi. Yuqori o'sish sur'ati **Namangan** (149,2 %), **Samarqand** (139,6 %) hamda **Farg'on'a** (133,5 %) viloyatlarida qayd etildi.

### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, yanvar-sentabr ming so'm



## O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI BO'YICHA STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Nominal hisoblangan ish haqi** – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarini o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

**Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni** – oyning ma'lum bir sanasiga, ya'ni birinchi yoki oxirgi sanasiga ko'rsatiladi. Bunda haqiqatda ishlayotganlar, vaqtincha ishlamayotgan, biroq ishga rasman biriktirilganligi huquqini saqlab qolganlar ham hisobga olinadi. Bitta tashkilotning ichida ichki o'rindosh sifatida rasmiylashtirilgan xodim bir kishi sifatida hisobga olinadi. Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar tarkibiga quyidagilar: O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 11, 83, 102, 119, 150, 159, 160, 165, 229, 236, 242, 254 – moddalarida keltirilganlar va boshqa mehnatga oid qonunchilik va me'yoriy hujjatlarda keltirilganlar kiritiladi.

Quyidagi xodimlar mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar tarkibiga kiritilmaydi: boshqa tashkilotlardan o'rindoshlik bo'yicha ishga qabul qilinganlar; fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar bo'yicha ish bajaruvchilar; tashkilot tomonidan, ishdan ajralgan holda, ta'lim muassasalariga yuborilganlar.

**O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni** – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqalojni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

Hisobot oyini qo'shgan holda, yil boshidan hisobot davridagi xodimlarning o'rtacha soni o'tgan jami oylardagi xodimlarning o'rtacha oylik sonini qo'shish va olingan summani hisobot davridagi oylar soniga bo'lish orqali aniqlanadi.



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI

The smartphone screen displays the following text:

**DEMOGRAFIYA VA MEHNAT  
STATISTIKASI BOSHQARMASI**

Tel.: 71 202-81-26 (27)